

ASRGA TATIGULIK KUN ROMANI YOHUD ZAMONAMIZDAGI MANQURTLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6559427>

Turayeva Malika Ergashboyevna

*Toshkent viloyati Chinoz tumani 15-son maktab ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi*

Annotatsiya: Chingiz Aytmatovning „Asrga tatigulik kun” asaridagi o'tmishini unutgan manqurt o'z onsining vafotiga sababchi bo'lgani orqali yozuvchi zamonamizni ogohlantirmoqchi boladi. Bugungi kunda insoniyligini yo'qotgan ,hudbinga aylnib ketgan insonlarni manqurt deyishimiz mumkin emasmi !?

Chingiz Aytmatov o'zining adabiyotdagi faoliyatini qissa yozishdan boshlardi.1957-1958-yillarda Chingiz Aytmatovning “Yuzma-yuz” va “Jamila” qissalari chop etiladi.Chingiz Aytmatov asarlari 191 tilga tarjima qilingan va jahon klassik asarlar durdonalari safidan joy olgan.Yozuvchining yana bir asari borki,unda faqat bir millatga emas butun insoniyatga daxldor ma'naviy-axloqiy muammolar haqda so'z boradi. Bu asar “Asrga tatiguik kun” romanidir.”Asrga tatigulik kun” romani 1980-yilda yozilgan.”Asrga tatigulik kun “ romani Asil Rashidov tomonidan o'zbek tilliga o'grilgan.Bu romanda Chingiz Aytmatov inson qadrini ,inson uchun insoniylik fazilatlari qanchalik muhim ekanligini Nayman ona fojiasi timsolida tengsiz tarzda ifodalab bergen.

Bu romanda shunday ikkita obraz borki ular bir-biri bilan o'xshash jihatlar namoyon qiladi.Bular:Sobitjon va Jo'lomon obrazlaridir.Bu ikkala obraz ham asarda manqurt sifatida tasvirlanadi.Jo'lomon shunday manqurt-ki unda faqat odamlarnikiga o'xshagan tashqi ko'rinish bor xolos ammo insoniylik fazilatlari unga begona .Jo'lomon hatto uni dunyoga keltirgan onasini ham tanimaydi,Jo'lomonni jonidan ortiq ko'rgan otasini bilmaydi hatto o'zini ismini ham eslay olmaydi.Bundaylar manqurt deyiladi.Manqurt esa qul hisoblanadi.Jo'lomon hech qachon o'z erkini talab qilmaydi.Unga oila , ota-onasi so'zlari begona.Manqurtlar huddi ko'chadagi daydi hayvonlardek ,faqat qorin g'ami bilan yashashadi.Sobitjonga kelsak u Jo'lomondek xotirasini yo'qotgan emas.U zamонавиyo manqurt.U o'z tarixini bilmaydi,insoniy tuyg'ulardan mahrum,milliy-urf odatlarni mensimaydigan o'ta darajada xavfli manqurt.Sobitjon o'z otasining o'lganini eshitgandan keyin ham otasiga hurmati oshmaydi.Aksincha,u otasining janozasiga faqat qarzini uzish uchun boradi.Sobitjonning otasi Kazangapning vasiyatini oyoqosti qilib:”Otamni shuncha uzoqqa olib borib yuramizmi?Shunday katta cho'lda bitta odamga joy topiladi”, - degani uni Jo'lomondan ham yomonroq darajada xavfli manqurt ekanini ko'rsatadi.



Bu asarda yana bir obraz bor-ki ,bu obrazdan har bir kitobxon o'zi uchun foydali bo'lgan fazilatlarni olishi mumkin. Bu Edigey obrazi.Edigey "Asrga tatigulik kun" romanida oqko'ngil,milliy urf-odatlarga hurmati cheksiz,kamtar,sadoqatli do'st timsolida gavdalantirilgan.Edigey sal qo'rsroq va qiziqqonroq bo'lgani uchun xalq orasida uni "Edigey Bo'ron" deb atashardi.Edigey do'sti Kazangapga uning o'gli Sobitjondan ko'ra yaqinroq bo'ladi.Kazangapning janozasida ham Edigey Kazangapga Sobitjondan ko'ra yaqinroq ekanini ko'rindi.Kazangapning vasiyatini Sobitjon bajargisi kelmaydi,ammo Edigey bu vasiyatni bajaradi.Bu hodisadan biz Edigeyning sadoqatli do'st ekanini ko'rishimiz mumkin.

"Asrga tatigulik kun" romanida eng asosiy obrazlardan biri bu Nayman ona obrazi hisoblanadi.Nayman ona bu asarda erining o'limi va o'g'lining bedarak yo'qolganidan keyin tushkunlikka tushib qoladi.O'g'lini hamma o'lgan deb o'ylasa ham Nayman onaning qalbida o'gli tirikligiga ishonch bo'ladi.Nayman ona irodali va kuchli bo'lgani uchun ham o'g'lini qidirishga yo'lga chiqadi.Nayman ona yo'lga chiqayotganida jungjanglar uni tutib olishi haqda o'ylamaydi , u faqat o'g'lini manqurt holida bo'lsa ham o'z qishlog'iga olib kelish haqda o'laydi.Nayman ona o'g'lining hayotini o'zinikidan azizroq deb biladi.

"Asrga tatigulik kun" romanida aytilganidek hozirgi kunda Sobitjonga o'xshagan zamonaviy manqurtlar ham bor.Bunday odamlar faqat o'zini o'laydi.Ular milliy urf-odatlarni mensishmaydi.Agar inson xudbin bo'lsa u ham manqurtga aylana boshlaydi.Manqurtlikdan qutulishning yagona yo'li bu yaxshilik qilishdir.Agar siz kimgadir kerakli paytda,kerakli joyda yordam ko'rsatsangiz ,demak siz insonsiz.Agar siz kimgadir yordam bera olsangiz-u ,ammo yordam bermasangiz demak sizning o'zingizga yordam kerak deganidir.

Yozuvchi mana shu rivoyat orqali insoniyatni katta bir xavfdan ogohlantirmoqchi bo'ladi. Ogoh bo'laylik bizning davrimizda,bizning zamonamizda zamonaviy manqurtlar ko'payib ketdi.Vataniga hiyonat qilgan ,tilini unutgan ,ota-onasidan xabar olmagan kishining onasini o'ldirgan manqurtdan qanday farqi bor?!

Qo'llanmalar: 9-sinf adabiyot darsligi, „ Asrga tatigulik kun” asari

Manqurt- xotirasini,o'zligini unutish.